

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI FAOLIYATI

Bekzodbek Abdullayev

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi

Tursunov Tohirbek

Andijon davlat universiteti tarix fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11063846>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davridagi mamlakatimiz qonunchilik tizimida amalga oshirilgan ishlar, ularning faoliyati, davlat hokimiyatining bo'linish prinsiplari, Qonunchilik palatasi faoliyati haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: qonun, palata, hokimiyat, qonun chiqaruvchi, nomzod, vakolat, huquq, partiya, spiker, qonunchilik ijodkori.

Asosiy qonunimizda O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi, deyilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat bo'lib, vakolat muddati besh yil. Saylov kuni 25 yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekistonda muqim yashayotgan fuqarolar Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin. Nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatiladi. Qonunchilik palatasi deputatlari bir yuz ellik nafardan iborat bo'lib, ular qonunchilik tashabbusiga ega. Qonunchilik palatasining maqomi va faoliyati Konstitutsiya, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonun va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.¹ Qonunchilik palatasining maqomini belgilash, faoliyatini tashkil etish, Senat va boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligiga oid munosabatlar qonunlarimizda o'z ifodasini topgan. Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli uning sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislaridir. Bu majlislar ochiq va oshkora o'tkaziladi. Qonunchilik palatasining birinchi majlisi saylovdan keyin ikki oydan kechiktirilmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi. Markaziy saylov komissiyasi raisi Spiker saylanguncha Qonunchilik palatasining birinchi majlisiga raislik qiladi. Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylash uchun deputatlar orasidan har bir siyosiy partiyadan kamida uch nafar deputatdan iborat Siyosiy partiyalar vakillari kengashi tuziladi. Spiker lavozimiga nomzod Qonunchilik palatasi majlisida raislik qiluvchi yoki Siyosiy partiyalar vakillari kengashining majlisiga raislik qiluvchi tomonidan taqdim etiladi. Spiker yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi, u deputatlar umumiy sonining yarmidan ko'pi ovozini olsa, saylangan hisoblanadi. Spiker deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Spiker o'rinbosarlari ham yashirin ovoz berish yo'li bilan, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida tuziladigan Qonunchilik palatasi kengashi tarkibiga Spiker, uning o'rinbosarlari, fraksiyalar

¹ <https://parliament.gov.uz/>

rahbarlari hamda qo'mitalar raislari kiradi. Qonunchilik palatasi qo'mitalari rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda saylanadi.²Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan fraksiya parlamentdagi ko'pchilikni tashkil qiladi. Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan fraksiyalar o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin.O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi. Prezident nomzodni ko'rib chiqib, o'n kun ichida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisiga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan Prezident nomiga Bosh vazirga ishonchsizlik borasida taklif kiritilishi mumkin. Bunda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi muhokamasiga Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritiladi va ishtirokchilarining uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda Vazirlar Mahkamasining butun tarkibi Bosh vazir bilan birga iste'foga chiqadi.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga Konstitutsiya va qonunlarni qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, referendum o'tkazish haqida qaror qabul qilish, ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash, boj, valyuta va kredit ishlarini tartibga solish, tuman (shahar)lar va viloyatlarni tashkil etish, tugatish va chegaralarini o'zgartirish, davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish, Bosh vazir va Hisob palatasining hisobotini eshitish kabi masalalar kiradi.Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari, qo'mitalar raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash, davlatning ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish, Bosh prokurorning taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasini hal etish, Bosh vazir taqdimiga binoan Vazirlar Mahkamasi a'zoligiga nomzodlarni keyinchalik ularni Prezident tomonidan lavozimlarga tasdiqlash uchun ko'rib chiqish kabi masalalar Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatidir.Ma'lumki, Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror ega.³ Ular Qonunchilik palatasiga qonun loyihasini "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilgan holda kiritishi kerak.Qonun loyihasini tayyorlash uning konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Qonun loyihasini tayyorlash uchun qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti tomonidan ishchi guruhi tuzilishi mumkin. Qonun loyihasini tayyorlashda jamoatchilik fikrini o'rganish zarur bo'ladi. Qonun loyihasining moliyaviy-iqtisodiy asoslari Moliya vazirligi tomonidan o'rganiladi. Loyiha huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart. So'ngra qonun loyihasi tegishli hujjatlar ilova qilingan holda Qonunchilik palatasiga yuboriladi. Qonunlar Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma'qullanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanganach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy nashrlarda e'lon qilingach, yuridik kuchga ega bo'ladi. Qonunchilik palatasi tomonidan

² <https://www.qashqadaryo.uz/oz/nview/qonunchilik-palatasi-qanday-vakolatlariga-ega-31-07>

³ 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati» DUK

qabul qilingan qonunlar o'n kun ichida Senatga yuborilishi, Senatda ma'qullangan qonunlar o'n kun ichida Prezidentga yuborilishi lozim. Bu qonunlar Prezident tomonidan o'ttiz kun ichida ko'rib chiqilishi belgilangan.

References:

1. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK
2. Xalq so'zi" gazetasining 2013-yil 23-apreldagi 74-soni.
3. <https://www.qashqadaryo.uz/oz/nview/qonunchilik-palatasi-qanday-vakolatlarga-ega-31-07>
4. <https://parliament.gov.uz/>
5. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK
6. Xalq so'zi" gazetasining 2013-yil 23-apreldagi 77-soni.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-moddasi.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Fuqarolarning_o%CA%BBzini_o%CA%BBzi_boshqarish_organlari

INNOVATIVE
ACADEMY